

## **“HUMO Visa kartalarini komissiyalarsiz qabul qiladi”**

### **nomli reklama aksiyasining qoidalari**

"HUMO Visa kartalarini komissiyasiz qabul qiladi" rag'batlantiruvchi tadbiri (bundan buyon matnda "Aksiya" deb nomlanadi) "Visa" savdo belgisi ostidagi xizmatlarga qiziqish uyg'otish va uni qo'llab-quvvatlash maqsadida o'tkaziladi.

Aksiyada qatnashayotgan ishtirokchilar undagi amaldagi qoidalarni to'liq qabul qilishadi va ulardagi tartiblarga rozi bo'lishadi.

#### **1. Atamalar va ta'riflar**

**Aksiya-** "HUMO Visa kartalarini komissiyalarsiz qabul qiladi" reklama aksiyasi

**Aksiya buyurtmachisi-** Visa International Service Association.

**Karta-** O'zbekiston Respublikasining ikkinchi darajali banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan bank kartasi Visa Classic, Visa Gold, Visa Platinum, Visa Infinite, Visa Signature.

**Aksiya tashkilotchisi-** Visa International Service Association buyurtmasiga ko'ra «Mega Media» mas'uliyati cheklangan shirkati (manzil: 050000, Qozog'iston respublikasi, Olmota shahri, Abdullinx ko'chasi, 31/23)

**Aksiya hamkorি -** O'zbekiston Respublikasida ro'yxatdan o'tgan "HUMO" banklararo to'lov tizimi

**Aksiya o'tkazilish davri** - qoidalarning 2.2. bandida ko'rsatilgan muddatda.

**Qoidalari** - "HUMO Visa kartalarini komissiyasiz qabul qiladi" rag'batlantiruvchi aksiyasining amaldagi qoidalari.

**Sovrinlar** (yoki Aksiya sovrinlari) –kafolatlangan har oyda beriladigan sovrinlar / yoki qoidalarning 8 – bandida ko'rsatilgan bosh sovrin.

**Sayt** – visa.com.uz

**Savdo nuqtasi** – komissiyasiz to'lov amalga oshiriladigan HUMO terminali bilan jihozlangan chakana savdo do'koniga/supermarketi.

**Ishtirokchi** - savdo shahobchasining kassir xodimlari, xaridorga to'g'ridan-to'g'ri "HUMO" vizani komissiyasiz qabul qiladi" aksiyasining shiorini targ'ib qiladi va qoidalarning 3.1-band talablariga javob beradigan Visa kartasi orqali to'lovni amalga oshirishga chaqiradi.

#### **2. Aksiya o'tkazilish muddati va joyi:**

2.1. Aksiya O'zbekiston respublikasi hududida o'tkaziladi.

2.2. Aksiyaning o'tkazilish davri - 2021 yilning 15 martidan 2021 yilning 15 iyunigacha.

#### **3. Aksiya ishtirokchilari:**

3.1. Aksiyada O'zbekiston Respublikasining voyaga yetgan fuqarolari va O'zbekiston Respublikasi hududida muqim yashash huquqiga ega bo'lgan, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan, Savdo shahobchalarining xodim-kassirlari bo'lgan shaxslar ishtirok etishlari mumkin.

3.2. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan shaxslar, shuningdek, Tashkilotchi, Aksiya Buyurtmachisi va Hamkorning xodimlari va vakillari, ularning oila a'zolari, shuningdek ular bilan bevosita bog'liq shaxslar, Tashkilotchi bilan Aksiyaga tayyorgarlik ko'rish, tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq shartnomalar munosabatlari bo'lgan uchinchi shaxslarning ishchilari va vakillari Aksiyada qatnashishlariga yo'l qo'yilmaydi.

#### **4. Aksiya tashkilotchisi va ishtirokchilarning huquqlari va majburiyatlar:**

4.1. Ishtirokchining huquqlari

4.1.1. Aksiyaning o'tkazilish muddatlari va shartlari haqida ma'lumot olish;

- 4.1.2. Aksiya tashkilotchisi haqida ma'lumot olish;
- 4.1.3. Amaldagi Qoidalarga muvofiq Aksiya g'olibi deb topilgan taqdirda, Aksiya sovrinlarini berilishini talab qilish.
- 4.2. Ishtirokchining majburiyatlari:
- 4.2.1. amaldagi qoidalarga rioxaliga qilish, shu jumladan, Aksiyadagi ishtiroki bilan bog'liq faoliyatni qoidalarda belgilangan muddatlarda amalga oshirish.
- 4.3. Tashkilotchining huquqlari:
- 4.3.1. aksiya o'tkazish davrida amaldagi qoidalarga o'zgartirish kiritish;
- 4.3.2. aksiya Ishtirokchilar bilan yozma muloqot yoki boshqa aloqalarni o'rnatmaslik, amaldagi Qoidalarda nazarda tutilgan holatlardan mustasno;
- 4.3.3. Ishtirokchilaridan amaldagi Qoidalarda nazarda tutilgan holatlarda zarur ma'lumotlar va hujjatlarni, shuningdek davlat organlariga taqdim etish uchun boshqa hujjatlarni talab qilish;
- 4.3.4. Aksiya g'oliblari biron sababga ko'ra sovrinlarni talab qilishmasa yoki sovrinlarni olishdan bosh tortgan taqdirda, Aksiya sovrindorlarining umumiyligi sonini kamaytirish. Bunday holda, Aksiya tugaganidan so'ng, ushbu Sovrinlar berilmaydi va Tashkilotchi tomonidan o'z xohishiga ko'ra tasarruf etiladi;
- 4.3.5. Ishtirokchi tomonidan amaldagi Qoidalarga rioxaliga qilmaslik holati aniqlangan taqdirda, Aksiya Ishtirokchisiga Sovrinni berishdan bosh tortish.
- 4.4. Tashkilotchining majburiyatlari:
- 4.4.1. amaldagi Qoidalarga rioxaliga qilish, Aksiya bilan bog'liq barcha harakatlarni ushbu Qoidalarda belgilangan muddatlarda amalga oshirish;
- 4.4.2. Aksiyaning amaldagi Qoidalarga muvofiq o'tkazilishini ta'minlash;
- 4.4.3. ushbu Qoidalarning 8-bandida nazarda tutilgan Aksiya g'oliblari Sovrin berish;
- 4.4.4. aksiya Ishtirokchilariga uni o'tkazilish qoidalari to'g'risida ma'lumot berilishini ta'minlash;
- 4.4.5. Sovrinlar topshirilayotganda, aksiya ishtirokchilarini tomonidan Aksiya davomida olingan Sovrinlar bo'yicha soliqlarning O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq to'lanishini ta'minlash.

## **5. Aksiya ishtirokchilarini jalb qilish rag'batlantirish:**

- 5.1. Ishtirokchilarini jalb qilish uchun Tashkilotchining vakili ixtiyoriy ravishda Humo terminallari o'rnatilgan Savdo shahobchalarini tanlaydi va Savdo shahobchasingning vakili orqali Aksiyaning shartlari, tartibi va muddati to'g'risida xabardor qiladi va liflet (ma'lumot varag'i)ni topshiradi;
- 5.2. Axborot-tushuntirish ishlari olib borilgandan so'ng, Tashkilotchining vakili Savdo shahobchasi vakiliga kafolatlangan sovrinni taqdim etadi:
- 5.2.1. Tovar bellgisi tushurilgan futbolka - 1 dona.
- 5.2.2. Tovar belgisi tushurilgan futbolka - 1 dona.
- 5.3. Savdo shahobchasingning vakili, o'z navbatida, Savdo shahobchasi kassirlari o'rtasida ma'lumot tarqatadi.
- 5.4. Aksiya Ishtirokchilarini rag'batlantirish uchun mo'ljallangan savdo shahobchalarining soni 600 tani tashkil etadi.

## **6. Aksiyada ishtirok etish bosqichlari:**

- 6.1. Aksiyada ishtirok etish uchun Ishtirokchi xaridorni Visa kartasidan, eng kam 50,000 (ellik ming) so'mni kassa hududida o'rnatilgan Humo terminali orqali to'lashiga targ'ib qilishi va ko'zlangan natijaga erishishi kerak;

6.2. Aksiya Ishtirokchisining Humo terminali orqali Visa kartasi bilan bitta Xaridorga minimal miqdordagi 50 000 (ellik ming) so‘mlik xizmat ko‘rsatishi va to‘lovlarni amalga oshirish soni cheklanmagan.

6.3. Aksiyada ishtirok etish bilan bog‘liq cheklolvar:

6.3.1. Agar Aksiya Tashkilotchisi Ishtirokchining taqiqlangan vositalardan foydalanayotganligini va / yoki Ishtirokchi ushbu Qoidalarda ko‘zda tutilgan shartlarga javob bermaydigan xatti-harakatlarni amalga oshirayotganligini aniqlasa, Tashkilotchi istalgan vaqtida ushbu qoidabuzarliklar aniqlangan vaqtgacha ilgari bunday shaxs tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilgan barcha operatsiyalarni bekor qilish (har bir operatsiya tarixini surishtirmasdan), shuningdek, ushbu shaxsni Ishtirokchilar yoki G‘oliblar ro‘yxatidan o‘chirish va uning Aksiyada ishtirokini davom ettirishdan chetlatish huquqi.

6.3.2. Aksiya Tashkilotchisi bir tomonlama va hech qanday sabablarni ko‘rsatmasdan, istalgan vaqtida quyidagi harakatlardan birini amalga oshirgan shaxslarni Ishtirokchilar yoki G‘oliblar safidan chiqarib tashlashga haqlidir:

- Aksiyada ishtirok etish uchun soxta operatsiyalarni bir necha marta ro‘yxatdan o‘tkazishda gumon qilinganlar;
- Sovrinni asossiz qo‘lga kiritish maqsadida firibgarlik harakatlarini amalga oshirishda gumon qilingan shaxslar.

## **7. Sovrirlarni taqsimlash tartibi:**

7.1. G‘oliblarni aniqlash va Aksiya sovrinlarini taqsimlash tartibi:

7.1.1. Qoidalarning 6.1-bandiga muvofiq, barcha muvaffaqiyatli bajarilgan operatsiyalar har oydagisi sovrinlar va asosiy sovrinni qo‘lga kiritish uchun o‘yinda ishtirok etadi.

7.1.2. G‘olib Random.org servisidan foydalangan holda Ishtirokchilarga berilgan tartib raqamlarini tasodifiy aniqlash orqali qayd etiladi.

7.1.3. 1 (bitta) ishtirokchi oyiga 1 (bir) marta ko‘pi bilan 1 (bitta) sovrin yutishi mumkin. Shu bilan birga, Qoidalarga muvofiq u tomonidan amalga oshirilgan kamida 50,000 (ellik ming) so‘m miqdoridagi boshqa to‘lovlarni bosh sovrin uchun o‘yinlarda ishtirok etishi mumkin.

## **8. Aksianing sovrin fondi:**

8.1. Oylik sovrinlar:

8.1.1. Amaldagi Qoidalarning 6.1-bandi talablariga javob beradigan barcha operatsiyalar oylik sovrin uchun o‘yinda ishtirok etadi.

8.1.2. Oylik sovrinlar Random.org servisi orqali o‘ynaladi.

8.1.3. G‘olibni Ishtirokchilarga berilgan tartib raqamlarini tasodifiy aniqlash orqali qayd etiladi.

8.1.4. Oylik sovrinlarga quyidagilar kiradi:

- "Media Park" maishiy texnika va elektronika do‘konida maishiy texnika va elektronika sotib olish uchun sertifikat, qiymati 1000000 so‘m - 3 dona. (Aksianing to‘liq davri uchun - 9 dona).

8.1.5. Oylik sovrinlarni topshirish sanalari:

- 15.03.2021 dan 14.04.2021 gacha bo‘lgan davr uchun 16.04.2021 da ;
- 15.04.2021 dan 14.05.2021 gacha bo‘lgan davr uchun 17.05.2021 da;
- 15.05.2021 dan 15.06.2021 gacha bo‘lgan davr uchun 16.06.2021 da.

8.2. Bosh sovrin.

- 8.2.1. Amaldagi Qoidalarning 6.1-bandи talablariga javob beradigan va Aksiya boshlangan davrdan boshlab amalga oshirilgan barcha operatsiyalar bosh sovrin uchun o‘yinda ishtirok etadi.
- 8.2.2. O‘yin Random.org servisi orqali Buyurtmachi, Hamkorning vakillari va Aksiya tashkilotchisining vakillari ishtirokida o‘tkaziladi.
- 8.2.3. G‘olib Ishtirokchilarga berilgan tartib raqamlarini tasodifiy aniqlash orqali qayd etiladi.
- 8.2.4. G‘oliblarni aniqlashda Aksiya tashkilotchisi asosiy va zaxira g‘oliblarini tanlaydi.
- 8.2.5. Agar asosiy g‘olib telefon qo‘ng‘irog‘iga 1 (bir) martada javob bermasa, u holda 60 (oltmish) daqiqa ichida yana 2 (ikki) marta qo‘ng‘iroq qilinadi.
- 8.2.6. Agar asosiy g‘olib 2 (ikkinchi) va 3 (uchinchи) martada ham javob bermasa, u holda u Sovrinni olish huquqini yo‘qotadi va zaxira g‘olibi avtomatik ravishda g‘olibga aylanadi.
- 8.2.7. Agar zaxira g‘olibi ham 1 (bir) soat ichida 3 (uch) urinish davomida telefonga javob bermasa, u holda Aksiya tashkilotchisi Random.org servisidan foydalanib, notarius va Aksiya Buyurtmachisining vakillari ishtirokida qaytadan asosiy va zaxira g‘oliblarini aniqlaydi.
- 8.2.8. Bosh sovrin:
- Asosiy komplektasiyadagi Nexia 3 LT AV- GS16 avtomobili – 1 dona.
- 8.3. Oylik va Bosh Sovrinlar tashqi ko‘rinishidan Saytdagi rasmlardan farq qilishi mumkin.
- 8.4. Tashkilotchi o‘z xohishiga ko‘ra Saytdagi Sovrinlar sonini o‘zgartirishga, shuningdek amaldagi Qoidalalar shartlariga o‘zgartirishlar kiritish orqali Sovrinlar tarkibini o‘zgartirishga haqlidir.
- 8.5. Sovrinlarni naqd pul shaklida berish / almashtirish mumkin emas.

## **9. Aksiya Sovrinlarini olish shartlari:**

- 9.1. 8-bandda ko‘rsatilgan sovrinlarni olish shartlari, tartibi va muddati:
- 9.1.1. Bosh sovrin g‘olibi bilan bosh sovrinni beg‘araz g‘olibga topshirish to‘g‘risida Sharhnomaga tuziladi. Sharhnomaga imzolagandan so‘ng, avtomobil kalitlari g‘olibga 10 (o‘n) dan 40 (qirq) ish kunigacha bo‘lgan muddatda topshiriladi.
- 9.1.2. Bosh sovrinni olish uchun G‘olib mustaqil ravishda va o‘z mablag‘lari hisobidan bosh sovrin topshiriladigan va Sharhnomaga imzolanadigan joyga yetib borishi kerak.
- 9.1.3. Oylik sovrinlarni yetkazib berish kur'erlik xizmati tomonidan amalga oshiriladi. Yetkazib berish muddati Sovrin kur'erlik xizmatiga topshirilgan kundan boshlab, Ishtirokchining joylashgan joyiga qarab 1 (bir) dan 40 (qirq) ish kunigacha bo‘lgan vaqtini o‘z ichiga oladi.
- 9.1.4. Sovrin tegishli Ishtirokchi tomonidan olinib va u tomonidan qabul qilinganligi to‘g‘risidagi dalolatnomaga imzolanganidan so‘ng sovrin topshirilgan hisoblanadi.
- 9.1.5. Agar Ishtirokchi tomonidan ko‘rsatilgan manzilga yetkazib berish paytda, Tashkilotchiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra, Sovrin berilmagan bo‘lsa (masalan, Ishtirokchi o‘zi ko‘rsatgan manzilga yetkazib berish vaqtida u yerda bo‘lmagan bo‘lsa, Ishtirokchi tomonidan ko‘rsatilgan telefon raqami bilan bog‘lanib bo‘lmasa va hokazo.), unday holda yetkazib berish yana 1 (bir) marta amalga oshiriladi.
- 9.1.6. Agar Ishtirokchi 2-chi (ikkinchi) yetkazib berish natijasida Tashkilotchiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra Sovrinni olmagan bo‘lsa, u holda Sovrinni olish huquqidani mahrum bo‘ladi, Sovringa u tomonidan ehtiyoj yo‘q deb hisoblanadi va Tashkilotchi o‘z xohishiga ko‘ra uni tasarruf etishi mumkin.
- 9.1.7. Aksiya Tashkilotchisi sovg‘alarni Ishtirokchiga topshirish usulini o‘zgartirish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

- 9.1.8. Sovrin jamg‘armasi faqat Ishtirokchining shaxsiy foydalanishi uchun ishlatalishi mumkin, uni sotish yoki boshqa yo‘llar bilan tijorat foydasini olish uchun ishlatalish mumkin emas.
- 9.1.9. Qoidalarning 8-bandida nazarda tutilgan sovrinlarni olish uchun G‘olib Aksiyada g‘olib bo‘lganligi to‘g‘risidagi xabarnomani olgan kunidan boshlab, ikki kun ichida elektron pochta orqali Tashkilotchiga quyidagi hujjatlarni topshirishi kerak:
- Pasport yoki O‘zbekiston Respublikasida yashash uchun ruxsatnomaning skanerlangan nusxasi (har ikki tomondan ham)
  - g‘olibning haqiqiy yashash manzili;
- 9.2. G‘oliblarga oylik sovrinlar kur'er orqali yetkazib beriladi. G‘olib, sovrinni olish paytida uni qabul qilib olganligi to‘g‘risidagi dalolatnomani imzolashga, shuningdek shaxsini tasdiqlovchi guvohnomasini taqdim etishga majburdir. Agar G‘olib bu shartlarni bajarishdan bosh tortsa, Tashkilotchining vakili Sovrinni topshirmaslikka haqlidir. G‘olib Tashkilotchining talabiga binoan Tashkilotchi tomonidan belgilangan tartibda sovrinni qabul qilganligi to‘g‘risidagi dalolatnomaning skanerlangan nusxasini yoki fotosuratini yuborish majburiyatini oladi.
- 9.3. Sovrirlarning yaroqliligi va ularning tasodifan zararlanish xavfi uchun javobgarlik sovrinni g‘olibga topshirish va sovrinni qabul qilish dalolatnomasiga imzo qo‘yish paytida g‘olib zimmasiga o‘tadi. Sovrirlarning shikastlanmaganligi va funksional jihatdan yaroqliligi G‘oliblar tomonidan qabul qilinish paytida tekshirilishi kerak.

## **10. Aksiya Tashkilotchisi va Buyurtmachi quyidagi holatlar uchun javobgar emaslar:**

- 10.1. Ishtirokchilarning o‘zlarining aybi bilan yoki aloqa tashkilotlari, kur'erlik va pochta xizmatlarining aybi bilan yoki boshqa Tashkilotchiga bog‘liq bo‘lman sabablarga ko‘ra, Aksiyaning Sovrirlarini olish uchun zarur bo‘lgan pochta jo‘natmalarini, ma'lumotlarini / hujjatlarini qabul qilmaslik / kechikkan holda qabul qilish;
- 10.2. Aksiya Ishtirokchilar tomonidan ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilmaganligi (o‘z vaqtida bajarilmaganligi) yoki Aksiya Ishtirokchilarining Saytdagi Aksiya to‘g‘risidagi ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyati bo‘lmanligi;
- 10.3. Aksiya Ishtirokchilari tomonidan ro‘yxatga olish ma'lumotlarida ko‘rsatilgan ma'lumotlar, aloqaga chiqish va boshqa ma'lumotlarning to‘g‘riligi, aniqligi va ishonchiligi va shu bilan bog‘liq sabablarga ko‘ra, aksiya ishtirokchilari tomonidan ko‘rsatilgan aloqa raqamlari bilan bog‘lanish mumkin emasligi uchun. Ishtirokchilardan olingan ma'lumotni Aksiya maqsadlarida, Sovrirlarni berish maqsadlarida, shu jumladan Tashkilotchiga bog‘liq bo‘lman boshqa sabablarga ko‘ra foydalanish imkonsizligi;
- 10.4. Sovrirlar ishtirokchilar tomonidan talab qilinmaganligi yoki ular tomonidan rad etilganligi, shuningdek, aksiya tashkilotchilariga bog‘liq bo‘lman boshqa sabablarga ko‘ra, ishtirokchilar tomonidan sovrirlarni ololmaslik holatlari;
- 10.5. Aksiyani o‘tkazish bilan bog‘liq harakatlarni bajarmaganlik, agar bunday holat ishtirokchining shaxsiy ma'lumotlarini ko‘rib chiqishga roziligin qaytarib olishi natijasida shaxsiy hayoti to‘g‘risidagi ma'lumotlar yo‘q qilinganligi sababli yuz bergen bo‘lsa;
- 10.6. Ishtirokchilarning Aksiyadagi ishtiroki davrida ularning hayoti, sog‘lig‘i, axloqiy va / yoki ruhiy shikastlanishi;
- 10.7. G‘olibning sovrin bilan bog‘liq kutayotgan holatlari.

## **11. Aksiyaning boshqa shartlari:**

- 11.1. Aksiya haqidagi bat afsil ma'lumotni ishtirokchilar aksiya o‘tkazilayotgan davrda sayt orqali bilib olishlari mumkin.

- 11.2. Tashkilotchi amaldagi Qoidalarga aksiya o‘tkazilayotgan davrda o‘zgartirish kiritish huquqini o‘zida saqlab qoladi. Shu bilan birga, amaldagi Qoidalarning har qanday o‘zgarishi to‘g‘risidagi ma'lumotlar Saytda joylashtiriladi.
- 11.3. Aksiyada ishtirok etib, ishtirokchi amaldagi qoidalar bilan to‘liq tanishib chiqqanligini va ularni qabul qilishini, xususan, quyidagi holatlarni ham qabul qilishini tasdiqlaydi:
  - 11.3.1. shaxsiy ma'lumotlarini o‘rganib chiqilishi;
  - 11.3.2. Tashkilotchidan yoki vakolatli uchinchi shaxslardan ushbu Aksiyaning o‘tkazilishi bilan bog‘liq bo‘lgan SMS-xabarlarni olish;
  - 11.3.3. Bosh sovrindor va birinchi va ikkinchi darajali sovrindor g‘oliblarini qo‘srimcha haq to‘lamasdan suratga olish, olingan foto va video materiallarni qayta ishslash, ulardan O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida taqiqlanmagan har qanday usulda, shu jumladan, tijorat maqsadlarida davomiy foydalanish va tarqatish.